

1-mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasasida sahnalashtirish faoliyati

Reja:

1. MTMda sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi
2. Teatr – sahnalashtirish faoliyatining shakli.
3. Teatr – sahnalashtirish faoliyatining printsiplari.

Tayansh atamalar:

Teatr, teatrlashtirilgan o`yin, sahnalashtirish, syujet, stsenariy, spektakl, qo`g`irchoq teatri, barmoq teatri, soya teatri, qo`lqop teatri, marionetkali (ipda boshqariladigan qo`g`irchoq) teatri, sahna, atributi.

1. Maktabgacha ta'lim muassasasida sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi.

Teatr san`ati bolalar uchun tushunarli va o`zi ijro eta oladiganan san`at turi, chunki uning asosida o`yin yotadi. Teatr tomoshabinga badiiy so`z, xatti-xarakat, rang, musiqa bilan ta`sir qo`rsatadi. Bolalarda yoshligidanoq teatrga qiziqishini shakllantirish kerak, teatrga borish, teatrlashtirilgan o`yinlarda, qiyin bo`lmagan spektakllarda ishtirok etishi juda muhim. bolalarning o`yinga bo`lgan ehtiyoji juda erta namoyon bo`ladi. 2-3 yoshdanoq bolalar qiziqish bilan maymoq ayinqli, qo`rqqoq qo`yonni, ayyor tulkini taqlid qilib ko`rsatadilar. Ular osonlik bilan bir obrazdan ikkichi obrazga kirishadilar. Ularning xarakatlari taqlid qilish, immitatsiya xarakterida, shu bilan birga juda emotsional.

Sahnalashtirish faoliyatining asosiy **maqsadi:** sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Sahnalashtirish faoliyatining vazifalari:

1. Sahnalashtirish faoliyatida bolalar ijodiy faolligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish (ijodiy ijrolarni rag`batlantirish, qobiliyatini rivojlantirish, sahnaviy chiqishlarda erkin va dadil o`zini tutish, mimika, erkin xarakatlar, intonatsiyalar va x.k. vositalari orqali improvizatsiyni paydo qilish)
2. Bolalarni teatr madaniyatiga jalb etish (teatr tuchunchasi bilan, teatr janrlari bilan , qo`g`irchoq teatri bilan tanishtirish.)

3. Pedagog teatrni boshqa faoliyat turlari bilan xamkorligini ta'minlashi (musiqa mashg'ulotlari, jismoniy xarakatlar vaqtida, ekskursiyalar va boshqalar bilan)
4. Kattalar va bolalar bilan xamkorlikda ishlashi uchun sharoitlar yaratish(ota-onalar, xamkasb va katta gurux bolalari xamkorligida kichik gurux bolalariga spektakllar namoyish etish)
5. Kichik yoshdagi bolalarga xurmat va o'zini – o'zi tushunishi uchun yaxshi mikroklimat yaratish.

Kichik yoshdagi bolalar — namoyishlardan minnatdor bo'ladigan tomoshabindir. Asosiysi, ota-onalar bolalarni qaerga va qanday maqsadda olib borganliklarini tushunishlari kerak. Xaqiqiy teatrga bolalarni (masalan 2-3 yoshli bolalarni) olib borish xali erta. Bolalar spektakllari repertuarlari, qoida bo'yicha, bu yoshdagi bolalarga mo'ljallanmagan. Shuning uchun teatrni uyda yoki bolalar bog'chasida tashkil etishni maslaxat beramiz. Uch yoshgacha bolalarga oddiy bolalar qiziqib o'ynaydigan o'yinchoqlar bilan tomoshalar qo'ysa bo'ladi.

Yangi o'yinchoqlar (qo'g'irchoq, kuchukcha, ayiqcha va x.k.) bolalarda zavq, qiziqish, xayratlanish xislarini uyg'otadi.



Bolalarbog'chasida bolalar teatrini nimadan boshlash kerak? Bolalarni teatrlashtirilgan o'yin faoliyatiga jalb qilish kerak, uning uchun tarbiyachi rejisyor bo'lishi va teatr tashkil eta olishi lozim. MTMda bolalar oddiy vaziyatlarni o'yinchoqlar bilan ijro etishi, qo'shiq kuylashi, she'r, ertak, hikoyalar kabi tanish adabiy asarlarni sahnalashtiradilar.

Yangi qo`g`irchoqni bolaga tanishtirish vaqtida oddiygina syujet o`ylab topish kerak, masalan: kuchukcha adashib qoldi va o`ziga haqiqiy do`st izlamoqda, qo`g`irchoq — kichkina qizaloq uni yaxshi ko`rish va parvarishlash kerak, ayiqcha asaldan ko`p yeganligi uchun oilaviy shifokor yordamiga muhtoj.

Har qanday bola o`yinchoqlar yordamida oddiy xarakterlardan asta-sekin kichkina qiyin bo`lmagan syujetlarni o`ynashi mumkin. Keyinchalik esa ushbu syujetlar hayotiy malakaga tayangan holda rivojlanadi. Tarbiyachi ham o`yinga qo`shiladi va ayrim rollarni ijro etadi, namuna sifatida ko`rsatadi, u yoki bu vaziyatda xohlagan harakat namunalarini ko`rsatib beradi, o`yin jarayonida improvizatsiya qiladi, ma`lum bir o`yinchoq nomidan gapiradi, bola fikrlashi, xarakter qilishi, javob berishi uchun stimullar yaratadi.

Bolalar teatri uyda. Uni qanday tashkil etish kerak? Bolaning sevimli o`yinchoqidan ota-onalar uy teatri qahramonini yaratishi darkor, ushbu o`yinchoq bilan har kuni qiziqarli sarguzashtlar ro`y berishini kuzatish mumkin. Ota-onalar bfarzandining o`yinchoq qahramoni bilan muloqot doirasini boshqa o`yinchoqlarni qo`shgan xolda kengaytirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Bolalar bog`chasida bolalar teatri. Ertaklar asosidagi turli xil teatrlashtirilgan tomoshalar bolalarni o`ziga jalb etadi, chunki sahna ko`rinishlari tushunarli va qiziqarli. Teatrlashtirilgan tomoshalar bolalarda tashabbuskorlikni, mas`uliyatni shakllantirishga yordam beradi, yaxshi bilan yomonni farqlashni, nutq, mimika, imo-ishora, muloqot madaniyatini, malakalarini rivojlantiradi, bolani teatr san`atining sehirli olamiga olib kiradi.

Bog`chada bunday o`yinchoqlar ishtirokidagi improvizatsiya-o`yinlari "o`yinchoq teatri" deb ataladi. Asosiysi— bolani improvizatsiya dialogiga qo`shish natijasida, o`yinchoq va bolaning xarakterlari ortadi. Shu asnoda bola teatrlashtirilgan faoliyatda ma`lum bir o`yin usullarini o`rganadi, tasavvuri, fantaziyasi faollashadi, ijodkorlik elementlari namoyon bo`ladi.

Bolalarga sahnalashtirish faoliyatida ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda dramallashtirilgan ertak va o`yinchoqlar ishtirokidagi



badiiy asarlar tanlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tanlangan sahna asarini ijro etish vaqtida asar qahramonlari gaplashishi, tekstga mos ravishda xarakatlanishi kerak. Badiiy asarlarni sanxnalashtirishda nafaqat oddiy o'yinchoqlardan, balki stol o'yinchoq teatridan ham foydalansa tarbiyachi oldiga qo'yilgan maqsadiga erishadi.

Teatrlashtirilgan spektaklni qanday tayyorlash kerak? Tarbiyachi xar bir qahramon xaqida fantaziya qilish, kichkina xikoya o'ylab topish mumkin. Bu bolalarda o'yin obrazlarini tasavvurlarini kengaytiradi. Bolalarni ijodiy mustaqilligini uyg'otish muhimdir, ularga xarakatlarni ko'rsatib berishini taklif qilish mumkin, masalan; ayiqni yurishi (Ayiqpolvonlar qo'shog'ini- ijro etib), chumchuqni uchishi(Jajji qushcha-qo'shig'ini kuylab), kapalaklarning engil qanot qoqishi (Kapalak- qo'shig'iga xarakatlar bajarish va ijro etish) va x.k bola barcha xarakatlarni mustaqil ko'rsata oladi. Katta guruh bog'cha bolalari syujet qahramonlarining kayfiyatini, ruhiy kechinmalarini ko'rsatib bera oladilar. Ular yoshligidanoq emotsional ifoda vositalarini egallashi uchun syujet qahramoni his-tuyg'ularini, mimika, imo-ishora, emotsiyalarini namoyish eta olishiga o'rganadilar. Personaj rolini o'rgatish jarayonida mashq qilish yahshi natija beradi. Masalan:chipor tovuq oltin tuxum qo'yganida chol va kampirning quvonganini, sinib qolganida ularning xafa bo'lganini ko'rsatib berishni taklif qilish mumkin, bo'g'irsoqning qo'shig'ini kuylashini (o'ziga ishonch va dadillik bilan, xayron bo'lib, quvnoq, xafa bo'lib), yoki bo'rining (qo'rqinchli ovozda) ko'rsatib berishini taklif qilish mumkin. Mana shular bolalarni "Obrazga kirishiga" yordam beradi. Bolalarning teatrlashtirilgan-o'yinlarga sekin-asta qo'shilishi ijobiy natijalar beradi. Olti yoshli bola nafaqat ishtirokchi va ma'lum bir rollarning ijrochisi bo'lishi, balki "rejisyor" sifatida o'zi sahnalashtirishi va mustaqil "o'yinchoqlar teatri" yoki qo'g'irchoqlar teari spektakllarini qo'yishi mumkin.

Mumkin, tengdoshlari orasida tanish badiiy asarning syujetlari asosidagi dramatzatsiyalashgan-o'yinning tashabbuskori va tashkilotchisi bo'ladi, mumkin, ma'lum bir sahna obrazining xarakter xususiyatlarini ko'rsatib beradi va asosiysi, o'zini ko'rsata olish, muloqot qilish, o'z qahramoniga nisbatan shaxsiy

munosabatini ko`rsatib berish ehtiyojini ro`yobga chiqaradi. Uyda va bolalar bog`chasida elementar teatrlashtirilgan faoliyat bolada teatrga san`at turi sifatida qiziqishini shakllanishiga, teatr haqida ma`lum bir tushunchaga ega bo`lishga, teatr terminologiyasi, teatr tomoshalarining estetik qabul qilishga olib keladi.

Bolalar uchun o`yin - bu jiddiy ish hisoblanadi va xar bir bola o`yinlari teatrlashtirilgan o`yinlarga aylanib boradi. E`tibor bering, bola xarakteriga: u o`zi o`ynadi, o`zi ovoz beradi, o`zining syujetlarini o`ylab topadi yoki tanish biror narsani o`ynadi. Shunday bo`lsada uning qahramonlari tanish ertaklar yoki o`yinchoqlar bo`lishi xam mumkin.

Bolaga son, xarf, tovush kabi abstrakt tuchunchalarni tuchuntirishga xarakat qilib ko`ring. Bu murakkab. Ammo, tuchunarsiz so`zlarning o`rniga bola qiziqarli odamchalar, xayvonchalar, qo`g`irchoqlar, askarchalarni ko`rasiz... Bir so`z bilan aytganda, zerikarli o`qish jarayoni quvnoq o`yinga aylanadi. Bolalar katta zavq bilan o`ynaydilar. Oldin tuchunarsiz boshlgan matematik tuchunchalardan xaqiqiy ertakni yaratsa bo`ladi, xarflar esa o`z-o`zidan tanish so`zlarga aylanadi.

Bugungi kundagi bog`cha yoshidagi bolalarni rivojlantirish va ta`lim-tarbiya berishda eng muvaffaqiyatli metodikalar, dasturlar, bolani rivojlantiruvchi teatrlashtirilgan o`yinlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa o`z navbatida kutilgan natijalarni beradi.

2. TEATR - SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING SHAKLLARI

Bolalar bog`chasida sahanalashtirish faoliyatini o`tkazish vaqti belgilanmagan. Ushbu faoliyat pedagogik faoliyatdan kelib chiqib tashkil etiladi, boshqa mashg`ulotlarga chegaralangan tartibda qo`shilishi (musiqa, tasviriy san`at va x.k.), shuningdek xaftalik o`quv jadvalining ona tili va atrof olam bilan tanishish mashg`ulotlarida rejalashtiriladi. Tashkil etilgan teatrlashtirilgan o`yinlar shakli kichik guruxlarga bo`lingan xolda o`tkazilgani ma`qul, shunda xar bir bolaga alohida yondashish ta`minlanadi.



Mashg`ulotlarning mazmuniga ko`ra har gal kichik guruhlar turlicha shakllanishi kerak.

Sahnalashtirish faoliyatining shakllari quyidagi faoliyatlarni o`z ichiga oladi: mashg`ulotlar, ko`ngil ochar o`yinlar, bayramlar, to`garak ishlari va x.k....

Mashg`ulotlar

Mashg`ulotlar bir vaqtning o`zida bilim olish, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalarini bajarishi darkor, faqatgina tomoshaga tayyorgarlik ko`rish bo`lmasligi kerak. Ularning mazmuni, shakli va metodi uch maqsadga erishishi uchun qaratilgan:

- nutq va teatr-ijrochilik faoliyati ko`nikmalarini rivojlanishiga;
- ijodkorlik muhitini yaratishga;
- bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga.

Bunday mashg`ulotlar mazmuni nafaqat badiiy adabiyot asari yoki ertak teksti, balki undagi qahramonlarning imo-ishorasi, mimikasi, xarakati, kostyumi, mizanstsensasi(*spektaklning ayrim paytlarida dekoratsiya va aktyorlarning joylanishi*)bilan tanishib boradilar. Teatrlashtirilgan mashg`ulotlarda bola quyidagi ko`nikma va malakalarni egallaydilar: qo`g`irchoq spektakllarini tomosha qilish va ular xususida suhbatlar o`tkazish; o`yin – dramatizatsiyalari; turli ertaklar va sahnalashtirilgan asarlarni o`ynash; ijroni ifodaliligini shakllantirish uchun mashqlar (og`zaki va og`zaki emas) bajarish.



Ko`ngilochar o`yinlar.

Bolalar bog'chasida har bir bolaning uyg'un ta'lim berishga katta e'tibor beriladi. U tasviriy san`at, nutqni rivojlantirish, musiqa mashg`ulotlarida amalga oshiriladi. Qo`ngilochar o`yinlar san'atning barcha shakllarini birlashtiradi, ulardan ijodiy foydalanish imkonini beradi, she'riy so'z, kuy, tasviriy va badiiy obrazlarlar bolalarda emotsional hissiyotlarni uyg`otadi. Ko`ngilochar mashg`ulotlarning ko'p turlari mavjud. Bu teatrlashtirilgan namoyishlar, konsertlar, professional artistlar ishtirokidagi spektakllar, shuningdek, bolalar bog'chalari, tarbiyalanuvchilar, ota-onalar tomonidan tayyorlangan spektakllarni o'z ichiga oladi.

Teatrlashtirilgan faoliyat har bir bolaning o'z-o'zini anglashiga va har birining o'z-aro xamkorlikni ta'minlashga yordam beradi, kattalar, bolalar teng harakat qiladilar. Umuman olganda, spektakl yoki kontsertda bola tabiiy ravishda kattalarning tajribasini o'zlashtiradi, xatti-harakatlarini qabul qiladi. Bundan tashqari, o'yin-kulgi va bayramlarda tarbiyachilar bolalarni yaxshi bilib olishadi, ularning xarakterlarining o`ziga xos xususiyatlarini, temperamentini, orzu va istaklarini bilib oladilar. Kichkina shaxsni hurmat qilish, unga g'amxo'rlik qilish, kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarga ishonish asosida mikroiklim yaratadi.



Bayramlar

Bayramlar, ko'ngilochar o'yinlar hammaga quvonch keltirishi va bolada badiiy qobiliyatlarini, hissiy sezgirligini, ijodiy faoliyati bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Bayramlar- teatr o'yinining shakli bo'lishi uchun, tarbiyalanuvchilar bilan kunda tizimli ish olib borishi talab etiladi. Tarbiyachi bola iste'dodini, didini, ijodiy faolligini - musiqiy va tasviriy faoliyatda, badiiy nutqda rivojlantib boradi va olgan bilimlarini ko'nikmaga aylanishini ta'minlaydi.

Bayram tadbirlari bolaga quvonch berishini, xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladigan taassurotlar manbai bo'lishi uchun tarbiyachi ko'p mehnat qilishi kerak. Bu jarayon bolaning axloqiy-estetik xis tuyg'ularning shakllanishining kuchli vositasidir. Shu sabali yaxshi tayyorgarlik, yaxshi o'ylangan ssenariy, to'g'ri tashkil etilgan bayram- quvnoqlik, xursandchilik bilan o'tadi. Bolalar o'z mahoratini namoyish eta oladilar. Bolalarda do'stlik, hamjihatlik, xurmat kabi fazilatlar shakllanib boradi.



To'garak ishi

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatini tashkil etishning yana bir shakli- to'garak ishidir u quydagi masalalarni xal etishda yordam beradi: bolalarning fantaziyasini, tassavvurini, barcha turdagi xotiralarini, ijodkorliklarini (badiiy nutq, musiqali-o'yin, raqs, sahna) va x.k. rivojlantiradi.


Agarda teatr to'garagi tashkil etilgan bo'lsa, teatr to'garagi rahbari o'z xohishi va istagini bildirgan bolalar bilan ish olib boradi. Bunda rahbar rejisyor bo'ladi, bolalar esa aktyor vazifasini bajaradilar. Rahbar o'z oldiga maqsad qo'yadi: bolalar bilan ishlashda - ssenariy, rejisyorlik va sahnalashtirilgan ish bilan

chegaralanib qolmasdn, bog`chada o`tdigan davri davomida bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

To`garakning asosiy mazmuni spektakl ustida ishlashni tashkil etish: bolalar bilan asar tanlash, mazmunini tahlil qilish, rollarni taqsimlash, o`yinli mashqlar, syujetdagi xarakterlarni o`zlashtirishga amaliy va emotsional yordam beradigan etyudlar bilan ishlash. To`garak rahbari tanlangan asarni parchalarga bo`lib, yakka tartibda va jamoa bo`lib o`rgatishda syujet qaxramonlarining hissiyotlari, kechinmalari, nutqi va mimikalari ustida ishlaydi. Spektaklning sahnalashtirish ishi esa maxsus mashg`ulotlarda, xaftada bir marotaba 30-40 minut davomida kunning birinchi yoki ikkinchi yarmida o`tkaziladi. To`g`arak faoliyatida teatrning barcha turlaridan foydalanishi va o`yin usullarini qo`llanishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

Maktabgasha yoshdagi bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatini rivojlantirish masalalaridan kelib chiqib uning mazmuni aniqlandi. Shu bilan birga to`garaklarni tashkil etish shakllari turlicha bo`lishi mumkin.

Teatrlashtirilgan faoliyatni tashkil etish shakllari.





3. TEATR – SAHNALASHTIRISH FAOLIYATNING PRINTSIPLARI

Stanislavskiy tizimi hayotning qonunlari bo`yicha qurilgan, unda jismoniy va ruhiy buzilmas birlik, unda eng murakkab ruhiy xodisa konkret jismoniy xarakterlar zanjiri ketma-ketligi ifodalanadi. Bilim ishonch beradi, ishonch erkinlik beradi, u esa o`z navbatida insonning jismoniy xarakterida o`z ifodasini topadi. Tashqi erkinlik — ichki erkinlikning natijasidir.

Stanislavskiy xaqqoniy, to`liq, jonli xarakterni yaratilish vositasi yo`llarini aniqlagan. Asarni mazmunini aniq tushunganda aktyor rolga kirishib ketadi va obraz yaratadi. Bunda rejissyor yordam beradi. Rejissyorning maqsadi obrazda aks ettirilgan yuz ifoda xarakterlari aktyorni gavdalantirishga yordam berish.

Stanislavskiy sistemasining printsiplari:

- *Xayotning xaqiqiylik printsipti* - sistemaning birinchi printsipti bo`lib, barcha barcha turdagi san`atning va sistemaning asosiy printsipti. Bundan keyingi printsipt kelib chiqadi.

- *Berilgan vazifadan tashqari printsipti* -rassom inson ongiga o`z fikrini singdirishga xarakter qiladi, bundan -umid, maqsad, xohish kelib chiqadi. Ijodiy va faol g`oyalar. Berilgan vazifadan tashqari -bu asarning maqsadi hisoblanadi. Rassom texnik usullar va ifoda vositalarni tanlashda to`g`ri foydalana olsa xato qilmaydi.

- *Faol xarakterlar printsipti* - bunda obraz va qo`rquvlarni namoyish etish kerak emas, balki obraz va qo`rquvlarda xarakterlanish lozim. Stanislavskiyning metodologik va texnologik ko`rsatmalari bitta maqsadga yonaltirilgan-bu vazifaga

ko'ra organik (tirik yoki jonli)ijodda aktyorning oddiy insoniy tabiatini o'yg'otish.

- *Tabiiylik printsipti*- oldingi printsiptdan kelib chiqadi. Ijodda mexanik va sun'iylik bo'lmasligi darkor, barcha xolat tabiiy bo'lishi shart.

- *Ifodaviylik printsipti*- ijodiy jarayonning yakuniy etapi- organik ijodiyotni gavdalantirish orqali sahna obrazini yaratish.

Sistema sahna ijodiyotining bir qancha usullarini o'z ichiga oladi. Ulardan biri, aktyorga taqdim etilayotgan rolning xolatiga kirishish va roli ustida ishlashi. Shuningdek "tipajli yondashuv" printsipti mavjud. Ushbu printsipt kinomatografdan kelgan bo'lib kino va reklamada foydalanib kelinmoqda. Bu printsiptda aktyorga taqdim etilgan rol mazmunidan kelib chiqib obraz yaratadigan emas, balki personajga tashqi va ichki sifatleri to'g'ri tushishi kerak. Rejissyor aktyorning mahoratigagina emas, balki tabiiy ma'lumotlarga tayangan xolda ish ko'rishi lozim. Agarda aktyor boshqasiga aylansa, u o'yin bo'ladi. Agarda o'zligicha qolsa bu o'zini-o'zi ko'rsatish. Ushbu ikki talabni bir-biriga sig'dirish lozim. Xuddi xayotdagidek, insonning yoshi ulg'ayib rivojlanadi, ammo u o'zligicha qoladi.

Aktyorning ijodiy xolati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Aktivlikni bir joyga jamlash(sahnaviy diqqat);
- Tana ushlanishida erkin bo'lishi(sahnaviy erkinlik):
- Taqdim etilgan shart-sharoitlarni to'g'ri baholay olish(sahnaviy ishonch):
- Shu asosda paydo bo'lgan xaraqatlanish xoxish (sahna xarakati).

1. **Sahnaviy diqqat** aktyorning ichki texnikasining asosi. Diqqat- bu hissiyotlar yo'ldoshi deb hisoblagan Stanislavskiy. Ob'ektning xarakteri *tashqi* (insonnig o'zidan tashqari) va *ichki*(fiklari,hissiyotlari)diqqatni qamrab oladi. Aktyorning vazifasi — sahna muhitidan tashqarida erkin ob'ektni, faol diqqatini jamlashi lozim. Stanislavskiyning sahnaviy diqqat formulasi— "Berganini ko'raman, ko'rsatilganiga munosabat bildiraman". Sahnaviy diqqatning xayotdan farqi fantaziya hisoblanadi— predmetni ob'ektiv ko'rish emas, balki uni qayta o'zgartirish.

2. **Sahnaviy erkinlik.** Erkinlik ikki tomonlama: tashqi (fizik) va ichki (psixik) bo'ladi. Tashqi erkinlik (musqulli) — bu organizm xolati, bunda har bir tana xarakati qanchalik musqul energiyasini talab etsa, shunchalik xarakat talab etadi. Bilim ishonchni oshiradi, ishonch esa erkinlikni tug'diradi, bu esa insonning fizik hulqini- namoyon etadi. Tashqi erkinlik — ichki erkinlik natijasidir.

3. **Sahna ishonchi.** Aktyor ishongan voqealarga tomoshabinlar ham ishonishlari kerak. Sahna ishonchi tushuntirishlar va sodir etilayotgan voqealar motivatsiyasi – ya'ni qandaydir voqea sabablaridir. Oqlash — tushuntirish, motivatsiyalash. Oqlash fantaziya orqali kelib chiqadi.

4. **Sahna xarakati.** Adabiyotda — bu so'z, rassomlik san'atida — rang va chizg'ilar, musiqada — tovushlar. Aktyorlik san'atida esa xarakatlar. *Xarakatlar* — inson xulq-atvorining erkinlik akti, aniq maqsadga yo'naltirilgan — klassik aniqlanish xarakatlaridir. *Aktyorlik xarakati* — kurashda maqsadga erishishning psixofizik jarayoni. Aktyorning tabiiy sahna hissiyotlari shunday: xayotiy hissiyotlar bilan sahnada yashash mumkin emas. Xayotiy va sahnaviy hissiyotlar kelib chiqishidan farqlanadi. Real voqealardan kelib chiqmaydi, sahnaviy harakatlar his-hayajonni xayotda tanish bo'lganligi sababli ijroda keltirishi mumkin. Bu *emotsional xotira* deb ataladi. Xayotiy his tuyg'ular birinchi o'rinda, sahnaviy esa ikkinchi o'rnida turadi. Emotsional kechinmalarning kelib chiqishi – bu his-hayajonni kelib chiqishi, shuning uchun ikkinchi darajali hisoblanadi. Stanislavskiy bo'yicha hissiyotlarni to'g'ri boshqarish vositasi bu – xarakatlardir.

Shunday qilib, xar bir xarakatning maqsadi bo'lib, ular tashqaridan paydo bo'lib - *hissiyotlarni qo'zg'otuvchi xarakatlar hisoblanadi.*

Insonning ma'naviy boyligi murakkab psixologik hayajonlar kompleksidir, sahnadagi oddiy *fizik xarakatlar* partiturasini fikrining katta kuchi hisoblanadi, bu esa elementar fizik ko'rinishlar jarayonini amalga oshiradi.

Bolalar bog'chasida teatrlashtirilgan o'yinlarida, sahna ko'rinishlarida, bayram ertaliklarida aktyorlik mahoratini oshirishda quyidagi prinsiplarga amal qilish lozim:

- ijrodan oldin muhitni yaratish va rivojlantirish,

- bolalarga psixologik qulaylik yaratish,
- bolalarni fikrlash va faol ko'nikma va malakalarini mustaxkamlash,
- bolalarga individual yondashuv,
- jarayonning ketma-ketligiga amal qilish,
- aniqlilik prinsiplaridan iborat.



Nazorat uchun savollar:

1. Mtmda sahnalashtirish faoliyatninig asosiy maqsadi?
2. Bolalar teatri bolalar bog`chasiida: nimadan boshlash kerak?
3. Uyda bolalar teatrini tashkil qilish?
4. Spektaklda bola ishtirok etishi kerakmi?
5. Bog`chada teatr tashkil etish uchun qanday o`yinchoq va inventar sotib olish kerak?
6. Teatrlashtirilgan spektaklni qanday tayyorlash kerak?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yisha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Yusupova P. Maktabgasha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvshi. 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013